

## **MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI**

**Qayumova Maftuna Qahhor qizi**

Shahrисабз Davlat Pedagogika Institutining talabasi

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lrim yoshidagi bolalar nutqi rivojlanish jarayonlaridagi psixologik holatlari, nutq o'sishining psixolingvistik xususiyatlari , kattalar bilan muloqotga kirishishi hamda tengdoshlari o'rtasida emotsiunal jihatdan qulay muhit yaratish kabi masalalar yuzasidan fikrlar ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** psixologik holatlar, psixolingvistik xususiyatlari, emotsiunal,intellektual salohiyat,ustuvor vazifa,miqdoriy o'sish, barkamol,ma'naviy sog'om, nazariya ,metodika

## **PSYCHOLINGUISTIC FEATURES OF PRESCHOOL CHILDREN'S SPEECH DEVELOPMENT**

### **ABSTRACT**

In this article, the psychological conditions of preschool children's speech development process, psycholinguistic features of speech development, communication with adults, and the creation of an emotionally comfortable environment among peers are discussed.

**Key words:** psychological conditions, psycholinguistic features, emotional, intellectual potential, priority task, quantitative growth, perfection, spiritual health, theory, methodology

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da maktabgacha ta’lim - uzlucksiz ta’lim tizimining dastlabki savod o‘rgatish turi ekanligi alohida ta’kidlangan.

O‘zbekistonning kelajagi ko‘p jihatdan barkamol va intellektual salohiyatlari avlodni tarbiyalashga bog‘liq. Bu muhim vazifani amalga oshirish uchun o‘z Vataniga, xalqiga, istiqlol g‘oyalariga sadoqatli, erkin va mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni komil insonlar sifatida voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Prezident Islom Karimovning 2009 – yilning asosiy yakunlari va 2010 - yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustivor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasidagi “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimz farovonligini yanada yuksaltirish” nomli ma’ruzasida farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma’naviy sog‘lom o‘sishi, balqi ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo‘lgan, XXI asr talablariga javob beradigan barkamol avlod bo‘lib voyaga yetkazish uchun barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yanligini alohida qayd etib o‘tilgan.

Psixolingvistika - nutqning hosil bo‘lishi, shuningdek, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini ularning til tizimi bilan o‘zaro bog‘lanishi holatida o‘rganuvchi fan; psixologiya va lingvistikannng sintezidan paydo bo‘lgan. psixolingvistika inson nutqiy faoliyati modelini va psixofiziologik nutqiy shakllanishini ishlab chiqib, ularni psixologik eksperimentlar yo‘li bilan tekshiradi. Tadqiqot manbai bo‘yicha tilshunoslikka yaqin bo‘lgan psixolingvistika o‘z tekshirish usullari bo‘yicha psixologiyaga yaqin turadi.

Lug‘at boyligining miqdoriy o‘sishi D. B. Elkoninning ko‘rsatishicha, bevosita bolaning hayot sharoitlari va tarbiyalanish xususiyatlariga bog‘liq. So‘nggi yillarda u yoki bu yoshdagি bolalar nutqining lug‘at tarkibini o‘rganishga bag‘ishlangan

tadqiqotlarda avvalgi tadqiqotlarga nisbatan yuqoriq miqdoriy ko'rsatkichlar aniqlandi.

Jumladan, V.Loginaning ma'lumotlariga ko'ra 3 yoshga kelib, bola lug'atida 1200 ta so'z mavjud bo'ladi, 6 yoshli bolaning aktiv lug'ati esa 3000-3500 so'zni o'z ichiga oladi. Vaholanki, 40-60 yil oldin o'tkazilgan tadqiqotlarda 3 yoshli bolaning lug'ati 400-600 so'zdan, 6 yoshli bolaning aktiv lug'ati esa 2500-3000 so'zdan iborat deb ko'rsatilgan edi.

Agar maktabgacha yoshdagi ya'ni 3-7 yoshdagiboladan berilgan topshiriqda nutqiy faoliyatning elementi bo'lmish so'z bilan muayyan amallarni bajarish talab etilsa, masalan, gap tarkibidan so'zlarni ajratib olish vazifasi berilsa, S. N. Karpovaning tadqiqoti ko'rsatishicha, bolada unga aytilgan gap belgilaydigan vaziyatga orientir olishning ancha barqaror moyilligi kuzatiladi. Berilgan so'z tarkibida nechta so'z mavjud degan savolga bolalar gapni "boshdan oyoq" qaytadan takrorlaydi. Masalan, "Koptok yumalab ketdi" degan gap berilsa, bola bu gapda bitta so'z "Koptok yumalab ketdi" degan so'z borligini aytadi. Ayni 5-9 yoshda bolalar xuddi shunday ifodalaydi. S. N. Karpovaning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolada gap tarkibidan barcha turdag'i so'zlarni ajratib olish ko'nikmasini shakllantirish mumkin. Buning uchun ularga so'zlarning mezonlarini, ya'ni so'z tovushlarining majmuasidan iboratligini, so'z doim muayyan mazmunga egaligini anglashi lozim. Albatta buning uchun bolaning yoshiga mos keluvchi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilinganday qilinganda, yoshidan qat'iy nazar bolalarda so'z haqida adektiv va anglangan tasavvurlar paydo bo'ladi.

### **Asosiy qism**

Vatanimizning kelajagi, dunyo mamlakatlari orasida yuqori po'gonalarga ko'tarilishi albatta , keljak- avlodlar qo'lida!

Shuning uchun ham bolalarni aqliy, ruhiy, jismoniy ,fiziologik,psixologik jihatdan tarbiyalash muhim o'rinn tutadi.

Bunday ma'suliyatli vazifani bajarishda tarbiyachilar asosiy rol o'ynaydi.

Bolalarning savodxonligini oshirish, nutqini o'stirish usullarining psixolingvistik xususiyatlariga tarbiyachi alohida e'tibor beradi. Ya'ni mashgulot davomida qo'llaniladigan iboralar, she'rlar ,ertak, hikoya, maqol, topishmoq, tez aytishlarda ishlatilgan so'zlarning hajmi va sifatiga alohida e'tibor qaratishi lozim.

## XULOSA

Psixolingvistik xususiyatlar matabgacha yoshdagi bolalarning jamiyatda taraqqiy etishlarida muhim o'rinn tutadi. Shuning uchun ham matabgacha yoshdagি bolaning nutqini o'stirishda atrofdagi insonlarning shuningdek tarbiyachilarning nutq madaniyati rivojlangan bo'lishi muhim sanaladi. Matabgacha yoshdagи bolalarning eng muhim xususiyati nutqning rivojlanganligi hisoblanadi.

Agarda bolalarning nutq o'stirish mashgulotlari yosh xususiyatlariga munosib bo'lmasa, guruhidagilardan ortda qoladi va shu tufayli ruhiy zo'riqishi yuzaga keladi. Xulosa qilib aytganda ,nutq o'stirish mashgulotlarning psixologik jihatdan qulay bo'lishi tarbiyachi tomonidan to'g'ri rejalshtirib borilishi zarurdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. -T.: "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi", 2006. - B. 68.
2. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
3. Babayeva D.R. "Nutq o'stirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanma
4. <http://google.com>
5. <http://book.uz>
6. <http://www.ilmiy-maqola.uz>
7. <http://www.dissertant.uz>
8. <http://maqola.uz>